

PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA VA OILA INTEGRATSIYASI

Mambetiyarova Venera Reyimbaevna

QDU Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

QDU sirtqi talim yo'nalishi Psixologiya guruhi

2- kurs talabasi Dáwletbaeva Gúmisay

Annotatsiya: Bu maqolada asosan psixologik adaptatsiya, oila va oila integratsiyasi psixologik jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga maqolada psixologik adaptatsiya, oila integratsiyasi haqida psixologik olimlarning fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik adaptatsiya, oila integratsiyasi, oila, psixologik muhit, psixologik qulaylik

Kirish

Ilm-fan tarixida oilani nazariy jihatdan o'rganish bilan bog'liq va bir necha ming yilni o'z ichiga oladigan (Konfusiy, Platon, Arastu davridan boshlab) azaliy an'analar mavjud.

Oila – bu mustaqil olam bo'lib, boshqa ijtimoiy voqeliklarga o'xshaydi, "jonli alohida va yaxlit tarixiy tizim"ni ifoda etadi.

Oila – inson hayotining zarur va asosiy bosqichlaridan biridir. Tabiiy va ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'liqlik oila faoliyati orqali amalga oshiriladi, individning biologik holatdan ijtimoiy holatga o'tishi ta'minlanadi. Individ aynan oilada shaxs sifatida shakllanadi. Oila insonning jismoniy va ma'naviy hayotining uslubi sifatida jamiyatni rivojlantirishning tabiiy va ijtimoiy asoslari o'rtasidagi vosita vazifasini o'taydi.

Oilani o'rganish uni jamiyatning yangi avlodlarni dunyoga keltirish, ta'minlash va ularning jamiyatda o'z o'rnini egallashi bo'yicha o'ziga xos vazifani bajaradigan kichik tizimi sifatida tushunmaslik kerak. Oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning yuqoridagi vazifalarni bajaradigan bo'g'ini emas. Oilaviy hayot ijtimoiy voqelik, ijtimoiy tabaqalashuv va ixtisoslashuv jarayonida ishtirok etadigan turfa ijtimoiy kuchlar to'qnash keladigan muhit bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazaridan oilani o'rganish – bu hayotning uzluksiz o'zgarishida avlodlar almashinuvi bo'yicha ijtimoiy tizim faoliyatini tashkil etishga e'tibor qaratish demakdir.

Oila ijtimoiy tashkilot, tuzilma, institut va kichik guruh xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat shakllangan paytdan boshlab paydo bo'lган. Oilaning tashkil topishi va mavjud bo'lishi qator meyoriy qadriyatlar bilan bog'liq. Masalan, ko'ngilni olish, o'z juftini tanlash, jinsiy odob-axloq standartlari, er, xotin, ota-onasi roya qiladigan meyorlar shular jumlasidan. Bu boradagi qat'iy belgilangan omillar esa ushbu jamiyatda qabul qilingan erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarib turadigan shakllarini ifoda etadi. Ular bu orqali

o‘zlarining jinsiy hayotini tartibga soladi, er-xotinlik, ota-onalar va boshqa qarindoshlik huquq hamda majburiyatlarni belgilaydi.

“Oila – bu ijtimoiy birlik turi, er-xotinlikka va qarindoshlik rishtalariga, ya’ni birga yashaydigan va umumiyoq xo‘jalikni yuritadigan er-xotin, ota-onas, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarga asoslangan shaxsiy hayotni tashkil etishning muhim shaklidir”.

Psixologik muhit – bu psixologik holatlar, kayfiyatlar, guruh va jamoadagi odamlar o‘rtasidagi munosabatdir.

Oiladagi psixologik muhitga er-xotinlarning atrofdagi odamlar, oila a’zolari va umuman, bir-biriga bo‘lgan munosabati ham ta’sir ko‘rsatadi. Oilaning tinchligi, farovonligi uning a’zolarining bir-biriga xayrixohligi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga intilishi, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlar bilan aniqlanadi.

Baxtli oilaning psixologik muhiti er-xotinlar manfaatlarining mushtarakligi bilan ifodalanadi.

Psixologik muhit ko‘proq odamlarning bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligida yorqin namoyon bo‘ladi. Odatda bu borada qadriyatlar, manfaatlar, his-tuyg‘ular, umumiyoq turmush tarzining o‘ziga xos uyg‘unligi tushuniladi. Agarda oilada bu kabi uyg‘unlik mavjud bo‘lsa, inson qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinadi.

Oilada juftlikning mos kelishi yoki kelmasligining ko‘rsatkichi nima? Bu oilani saqlash, oila a’zolarida psixologik qulaylik, ishonchlik, himoyalanganlikning his etilishi hisoblanadi. Bunday oilada psixologik muhit yaxshi bo‘ladi.

Odamlarning bir-biriga mos kelmasligi, ya’ni bir-biridan uzoqlashishi mos kelishning aksi hisoblanadi. Er-xotinlar o‘rtasida vaqtinchalik bir-biridan uzoqlashishi, bir-biri bilan gaplashishdan “psixolgik qoniqish” yuzaga kelishi mumkin. Olimlarning fikricha, bu munosabatlar yaqinlar kishilar “yolg‘izlik huquqi”ni tan olsa va shundan so‘ng o‘zaro munosabatda bo‘lishga yana intilish paydo bo‘lsagina mustahkam bo‘lishi mumkin.

Juftlikning bir-biriga mos kelish yoki kelmasligi – murakkab holat bo‘lib, bir necha bosqichdan iborat. Bu g‘oyaviy-ma’naviy umumiylig va ijtimoiy-psixologik mos kelishlik hisoblanadi. Ushbu omillar er-xotinning hayotning past-balandi, asosiy qadriyatlarni yaxshi bilishligi, dunyoqarashi va hayotda o‘z o‘rniga nisbatan qarashlari mos kelmaganda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, juftlikning bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligi psixologik va psixofiziologik bo‘lishi ham mumkin hamda ular shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, er-xotinning fe'l-atvori va qiziqqonligiga bog‘liqdir.

Bir-biriga mos keladigan juftliklar shunga o‘xshash bir xil fazilatlarga (aqliy jihatdan yetuklik darajasi, tarbiya va hokazo) va ayni paytda qiziqqonlik xususiyatlari bilan bog‘liq boshqa qarama-qarshi xislatlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Kundalik

hayotda odam o‘ziga mos keladigan juftlik topishga harakat qilishi zarur. Biroq, mukammal odamning o‘zi yo‘q va shuning uchun bir-birini tushunish, o‘z xohish va ehtiyojlarni boshqa kishining intilishlari bilan mutanosiblashtirish lozim.

Xulosa

Oilaning barcha taklif etilgan o‘ziga xos xususiyatlarini birlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, oila – bu yagona umumiyligi faoliyatga asoslangan, er-xotinlik, ota-onalik, qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan odamlar jamoasi bo‘lib, u oilada farzandlarni dunyoga keltirish va avlodlar vorisiyligini, shuningdek, bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hamda oila a’zolarining hayot kechirishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, uchta bo‘g‘indan iborat - er-xotinlik-ota-onalik-qarindoshlik munosabati oilani yuqorida qayd etilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Oilaning tuzilishi xilma-xil bo‘lib, u er-xotinlik, ota-onalik-qarindoshlik xususiyatlariga qarab tashkil topadi. Bugungi kunda ota-onalik va ularning farzandlaridan iborat nuklear oila eng keng tarqalgan tur hisoblanadi.

Har bir toifadagi oilada kechadigan ijtimoiy-psixologik voqelik va jarayonlar, oila a’zolarining emotsiyonal munosabat ko‘rinishlari, uning ijtimoiy-psixologik maqsadlari va oila a’zolarining alohida psixologik ehtiyojlarini o‘z ichiga oluvchi o‘ziga xos nikoh-oila munosabatlari uning o‘ziga xos xususiyatlari sanaladi.

Oilani kuzatish bilan shug‘ullanadigan ruhshunosning vazifasi nihoyatda keng bo‘lib, ko‘plab o‘zaro bog‘liq jihatlarni qamrab olgan. Er-xotinning nikoh-oila munosabatlaridan qoniqishi, er-xotinning turli darajada bir-biriga mos kelishi, ota-onalik va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, bolaning o‘ziga, ota-onasi va oilasiga nisbatan munosabati shular jumlasidan. Umuman olganda oiladagi psixologik muhitni o‘rganishda yuqoridagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etib oila mustahkamligini oshirishga xizmat qiluvchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. G’oziyev E.G. Umumiyligi psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. G’oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Abdullayeva, M. (2020). Oila va psixologik adaptatsiya: nazariy va amaliy jihatlar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
4. Khalilova, D. (2019). Oila integratsiyasi va psixologik salomatlik. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Psixologiya Assotsiatsiyasi.
5. Iskandarov, R. (2021). Psixologik adaptatsiya: nazariy asoslar va amaliyot. Tashkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
6. Mamatov, B. (2022). Oila munosabatlari va psixologik qo‘llanmalari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti.
7. Nazarova, T. (2023). Oila integratsiyasi va bolalar psixologiyasi. Tashkent: O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi.

8. Saidov, E. (2020). Oila va psixologik adaptatsiya jarayonlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
9. Jumayev, V. (2018). Psixologik adaptatsiya va ijtimoiy integratsiya. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
10. Djalilov, K. (2021). Oila tizimlari va psixologik yondashuvlar. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy xizmatlar agentligi.
11. Xo‘jaeva, M. (2019). Oiladagi psixologik muammolar va ularni hal etish usullari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Psixologiya instituti.

